

BUGUN PILLA-ERTAGA TILLA

Jumanozarova Dilrabo Bahrom qizi

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

To‘qimachilik sanoati texnologiyasi fakulteti

III bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan bakalavrlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u pillani chuvishga tayyorlash, chuvish, yig‘ish, sifatiga baho berish, texnologik suvni tayyorlash, chiqindilarni dastlabki ishlash va ipak eshish fabrikalarida tayyorlanadigan tabiiy ipak va kimyoviy toladan eshilgan iplarni ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘z ichiga olgan. Pillalarni chuvish va eshilgan iplarni ishlab chiqarishdagi zarur rejimlar va texnologik me‘yorlar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ

Эта статья предназначена для бакалавров, получающих образование по направлению производства шелковой продукции. Он включает технологию подготовки коконов к размотке, кокономотание, уборку, оценку качества, шелка-сырца подготовку технологической воды, первичную обработку отходов и выработку крученных нитей из химических волокон и натурального шелка, вырабатываемых на крутильных фабриках. Приведены необходимые режимы и технологические нормы для кокономотания и производства крученных нитей.

ANNOTATION

This article is intended for bachelors studying silk production, which includes cocoon preparation for spinning, spinning, collection, quality assessment, process water preparation, waste pre-treatment and silk spinning. including technologies for

the production of natural silk and man-made yarns from factories. Necessary regimes and technological norms for spinning of cocoons and production of spun yarns are given.

Mehnatkash o‘zbek xalqining yana bir mashaqqatli sohada erishayotgan yutuqlari tahsinga loyiq. Bir qator ma’sulyat talab etiladigan bosqichlardan iborat “Kumush tola” yetishtirish azal azaldan an’anaga aylanib ulgurgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ipakchilik tarmog‘i tarixiga nazar solsak bir qancha viloyatlarimiz hamda vohalarimizda ancha yillardan buyon o‘z faoliyatini yuritib kelayotgan korxonalar mavjud va ular bugungi kunda ham jahon bozori talablariga javob beradigan darajadagi mahsulot ishlab chiqarmoqdalar. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pilla yetishtirish va ipak ishlab chiqarish sohasiga, uni jahon andozalari talab darajasiga olib chiqish uchun juda katta e’tibor berilmoqda. Tabiiy ipak- jonivorlardan olinadigan qimmatbaho to‘qimachilik xom ashyosi hisoblanib, u ipak qurtining ipak ajratish bezi mahsuli hisoblanadi. Pilla va ipak ishlab chiqarish, uni qayta ishlash O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi an’anaviy milliy hunardmandchiligi bo‘lib, xususan, mamlakat hududida Farg‘ona vodiysi, Zarafshon vohasida keng rivojlangan. Keyinchalik diyorimizda pilla yetishtirishni jaddallik bilan rivojlanishi yurtimizda pillani qayta ishlashni sanoat usuliga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Ipakchilik sanoati O‘zbekistonda asosiy sanoat sohalaridan biri bo‘lib, to‘quvchilik korxonalariga xom ashyo tayyorlaydi.

Ipakchilik sanoatining asosiy mahsulotlariga:

- ❖ Tut ipak qurti pillasi;
- ❖ Pilladan chuvib olingan xom ipak
- ❖ Eshilgan ipak iplari (jarrohlik, tikuv iplari);
- ❖ Shakldor ipak iplari;
- ❖ Yigirilgan ipak iplari;
- ❖ Maxsus sohalar uchun (elektrotexnika, harbiy, kosmos) tayyorlangan ipak iplari.

Shoyi to‘qish sanoatida, asosan, ipak gazlamalar (xon atlas, krepdeshin, krepjorjet va shifon, tasma, gilam) ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Xom ipak assortimentini ko‘paytirish aholini kelib chiqishi va an‘analari, sanitariya gigiyena talablari, iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ipak mahsulotlarini yangidan yangi turlarini yaratish imkonini beradi. Bu masalalarni hal qilishda ishlab chiqarish korxonalarining ahamiyati katta. Pillakashlik korxonalarida xom ashyodan, texnologiya va dastohlardan, ishchi kuchidan unumli va oqilona foydalanib, mahsulot tannarxini kamaytirish hozirgi davr talabidir. Uzluksiz iplardan tayyorlanadigan eshilgan ip mahsulotlari, maxsus tola eshish fabrikalarda, ipak kombinatlarining tola eshish sexlarida hamda kimyoviy tola va ipak tayyorlanadigan to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladi. Eshilgan mahsulotlarning assortimenti, turlari ko‘pdir. To‘qima va trikotaj ishlab chiqarishda ishlatiladigan eshilgan iplar bilan bir qatorda, turmushda keng iste‘mol qilinadigan va texnikaga mo‘ljallangan turli xildagi eshilgan mahsulotlar ham tayyorlanadi. Eshilgan mahsulotlar tabiiy ipakdan, shuningdek, turli sun‘iy, sintetik va shisha toladan qilingan iplardan ham tayyorlanadi. Eshilgan iplar o‘zining tuzilishiga, strukturasi qarang, dastlabki hom ashyoning xiliga va qanday mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallanishiga ko‘ra turli texnologiyani, mashina va mexanizmlarni qo‘llash zarurligini taqozo etadi. Ipak eshishda sof mexanik, ya‘ni qayta o‘rash, eshish va qayta eshish jarayonlari bilan bir qatorda kimyoviy texnologiya, ya‘ni ipak xom ashyosini pishirish, ipni bo‘yash va boshqa jarayonlar ham qo‘llaniladi. Ipak eshish texnologiyasida ko‘p hollarda mexanik jarayondan ham, kimyoviy jarayondan ham foydalaniladi. Eshish mahsulotlari ishlab chiqarishda vaqti-vaqti bilan ishlaydigan mashinalar, ivitish apparatlari, sentrifugalar, quritish mashinalari, bug‘lash kameralari va hakazolar ishga solinadi hamda qayta o‘rash, eshish uzluksiz harakatlar qo‘llaniladi. Mazkur maqolada quruq pilladan xom ipak ishlab chiqarish, eshish fabrikalarida tayyorlanadigan eshilgan ipak iplari va kimyoviy toladan eshilgan iplarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va ipak ishlab chiqarish texnologiyasi nazariy asoslari izohlab berilgan. Biz Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti talabalari sifatida shu sohada tahsil olar ekanmiz, ushbu ipakchilik tarmog‘i tarixi bugungi kuni

haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lib kelmoqdamiz. Bir qancha olimlar hattoki akademik olimalarimiz hayotiy faoliyati, qanday ilmiy ishlar ustida ish olib borganlari to'g'risida bilib olmoqdamiz. Bunday ma'lumotlarga ega bo'lish esa bizning diplom ishi himoyamizda, kelajakdagi rejalashtirgan ishlarimizda beminnat xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. X.Alimova, N.Islambekova, A.Gulamov, Sh.Fayzullayev “Ipak ishlab chiqarish texnologiyasi” Darslik T. «TTYeSI» 224 b , 2018 y.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Islambekova N.M. Ipak ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari nazariy asoslari fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. 2014 y.

